Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	
Innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish	784
<i>Usmonova Dilafruz Umirzoqovna</i>	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi	788
<i>Sharipov Ulug'bek Ibotovich</i>	
Texnologiya fanida raqamli ta'lim resurslari asosida amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish metodikasi	792
<i>X. Ch. Dusyorov, X. A. Qulmamatova, N. O. Shog'darov</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining strategik boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish tendensiyalari	796
<i>Itolmazova Gulzoda Qurbongeldiyevna</i>	
Sinfdan tashqari ishlar orqali boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etish metodikasi	800
<i>Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborotga oid ko'nikmalarni shakllantirishda didaktik o'yinlarning roli	805
<i>Shononova Gulsanam Shavkat qizi</i>	
Masofaviy ta'lim sharoitida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish tajribasi	810
<i>Shukurov Mirshod Karim o'g'li, Sharipov Bahrom Bo'riyevich</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida innovatsion metodlarning sifatli ta'limdagi o'rni	816
<i>Jabbarova Zuhra Omondullayevna</i>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	819
<i>Bozozrova Adiba Xudayarovna</i>	
Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni olib borishda psixodiagnostik faoliyatning o'rni	823
<i>Odamova O'g'iljon Kenjayevna</i>	
Pedagogical and Psychological Possibilities of Technological Education in Developing Constructive Thinking in Early School Age	827
<i>Egamova Anbarjon Atanazarovna</i>	
Shaxsda empatiya shakllanishining yosh davrlar bo'yicha psixologik xususiyatlari	832
<i>Kurbanova Zaynab Jurakulovna</i>	
Voleybolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	836
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Samatova Maftuna Sohib qizi</i>	
Oliygo'h talabalari o'rtasida basketbol sporti mashg'ulotlari orqali jismoniy sifatlarini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari	840
<i>Mustafayev Yoqubjon Xayrullayevich, Husenova Norjona Umid qizi</i>	
Inson shaxsini shakllantirishda jamiyat tarbiyasining ahamiyati	844
<i>Normurodova Munisa Nuriddin qizi</i>	
Ikki tilli nutqda kod almashtirish hodisasining lingvistik, pragmatik va ijtimoiy funksiyalari	847
<i>Nurmamatova Zarifa Abdiraup qizi</i>	
Yosh kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi	850
<i>Nurullayev Abdixoliq Qaxxorovich</i>	



Jismoniy tarbiya murabbiylarining faoliyatini sport klublarida tashkil qilishning integrativ mexanizmlari didaktik-metodik yondashuvlar	853
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
O'quvchilarning ta'lim olish jarayoniga zamonaviy o'qitish usullarining ta'siri	857
Ochilova Sarvinoz Bozor qizi	
Talabalarga Regbi-7 sport o'yinida himoya va hujum usullari hamda texnologiyalarini takomillashtirish	860
Ramazonova Gulmira G'olib qizi	
Oliy ta'limda siyosiy tafakkurni shakllantirishda sun'iy intellektning pedagogik modeli: nazariya va amaliyot uyg'unligi.....	863
Rasulev Bobirjon Atxamovich	
Boshlang'ich sinflar ta'lim tizimida kommunikativ ta'lim harakatlarini shakllantirishning tashkiliy-pedagogik shartlari	867
Shoira Rahimova Adilbekovna	
Raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o'quv faoliyatini integrativ mexanizmlar orqali tashkil qilish va rivojlantirish.....	871
Sirojov Otajon Orifjonovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini mediata'lim resurslari vositasida rivojlantirish metodikasi	875
Suleymanova Ra'no Dustbekovna, Bekova Nilufar Aliboy qizi	
Nemis tilidan o'zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lingvistik va kommunikativ qiyinchiliklar.....	881
Turamurodova Sevinch Anvarovna	
Globalashuv jarayonida ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarning estetik madaniyatda ifodalanishi	884
Xudayberdiyeva Xuriyat Karimberdiyevna	

INNOVATSIYALAR VA AN'ANALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARNI MA'NAVIY RUHDA TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Usmonova Dilafruz Umirzoqovna

Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti
"Psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashni takomillashtirish masalalari yoritilgan. Ushbu jarayon ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda milliy qadriyatlarni uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Innovatsion metodlar bilan an'anaviy tarbiya tamoyillari o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash talabalarning ma'naviy kamolotini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: innovatsiyalar, an'analar, ta'lim, pedagogika, ma'naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, pedagogik texnologiyalar, jamiyat, axloqiy mas'uliyat.

Abstract: This article examines the improvement of students' spiritual education through the integration of innovations and traditions. The process focuses on combining modern pedagogical technologies with national values. The integration of innovative methods and traditional educational principles contributes to the formation of a spiritually mature student personality.

Key words: innovations, traditions, education, pedagogy, spiritual education, national values, student-centered approach, pedagogical technologies, society, moral responsibility.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования процесса духовного воспитания студентов на основе интеграции инноваций и традиций. Данный процесс направлен на сочетание современных педагогических технологий с национальными ценностями. Интеграция инновационных методов и традиционных воспитательных принципов способствует формированию духовно зрелой личности студентов.

Ключевые слова: инновации, традиции, образование, педагогика, духовное воспитание, национальные ценности, личностно ориентированный подход, педагогические технологии, общество, моральная ответственность.

KIRISH

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar va innovatsion yondashuvlar asosida boshlashimiz zarur. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim vazifasidir.

XXI asr – texnika va texnologiya asri. Bu nom bejizga aytilmagan, atrof-muhitda sodir bo'layotgan hodisalar uni o'rganishga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Ushbu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli ko'ril-magan kashfiyotlar yuzaga kelmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda, ularga bo'lgan qiziqish va e'tibor tobora kuchayib bormoqda.

Demak, talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasiga, axborot muhiti sharoitida talabalarning ma'naviy yetukligini shakllantirishning amaliy pedagogik tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida axborot-ta'lim muhitini kengaytirish, talabalarning axborotdan to'g'ri foydalana olish kompetensiyasini shakllantirish jarayonida ma'naviy yetuklik ko'nikmalarini tarkib toptirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "XXI asrning oliy ta'limi" Butunjahon deklaratsiyasi hamda UNESCOning "Oliy ta'limni isloh qilish va rivojlantirish"ga oid dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, modulli ta'limni tashkil etish, o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talaba-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.



Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning yaxlit tizimini yaratish, yoshlarni mediamakonda turli xil axborot xurujlaridan himoya qilishning tashkiliy-tadqiqiy jihatlarini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalaridan foydalanishni samarali yo'lga qo'yish, talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini hamda axborotlar bilan ishlash madaniyatini tizimli ravishda shakllantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarasi va ta'sirchanlik ko'lamini oshirish, talaba-yoshlar tafakkurida amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish, axborot muhitida duch kelinayotgan ma'lumotlar bazasidan oqilona foydalanish va ularni to'g'ri qabul qila olish, talabalar ong-u tafakkuridagi ma'naviy bo'shliq o'rnini ma'naviy yetuklik kompetensiyasi orqali to'ldirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Talabalarda axborot muhiti sharoitida ma'naviy yetuklikni shakllantirishning umumkasbiy kompetensiyalar tizimidagi o'rni va rolini ochib berish, axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish, kommunikativlikning ijtimoiy-perseptiv tuzilmasini faollashtirishga doir vaziyatlarni ishlab chiqish, ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy yetuklikni shakllantirish uchun ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini boyitish hamda turli o'quv kurslarida yangi interaktiv usullarni qo'llashga yo'naltirilgan oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil-14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son¹ qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son² qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son³ qarori, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son⁴ Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda⁵gi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son⁵ qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son⁶ Farmonida talaba-yoshlarning ma'naviy kamoloti va ma'naviy yetuklik darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Ma'naviy qadriyatlar mushtarakligi asosida shaxs ongini shakllantirish masalalari, yoshlarning milliy tarbiyasi, oilaning ma'naviy asoslari, mustaqillik ma'naviyati va tarbiya masalalari, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularining shakllanishi, ushbu jarayonda milliy ma'naviyatning o'rni va roli tahlil etilgan, shuningdek, talabalarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash hamda milliy ma'naviy merosni yoshlar ongiga singdirish yo'llari yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalash masalasi o'zbek pedagogik tafakkurida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Safo Ochilning "Mustaqillik va tarbiya masalalari" asarida mustaqillik sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, unda ma'naviy tarbiya shaxs kamolotining yetakchi omili sifatida talqin etiladi. Muallif tarbiya jarayonida an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, zamonaviy ijtimoiy talablarga moslashuv masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu yondashuv innovatsiya va an'analarni integratsiyasining nazariy poydevorini tashkil etadi.

Innovatsion ta'lim masalalari N. A. Muslimov tahriri ostida chop etilgan "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" asarida atroflicha yoritilgan. Unda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv metodlar va pedagogik texnologiyalarning samaradorligi asoslab berilgan. Muallif innovatsiyalarni ta'lim mazmunini boyituvchi va talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi vosita sifatida baholab, ularni milliy tarbiya an'analari bilan uyg'un holda qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Bu qarashlar talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalash jarayonida innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini ochib beradi.

- 1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil-14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori: <https://lex.uz/docs/-3864155>
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4320700>
- 3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5344692>
- 4 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
- 5 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda⁵gi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4676839?ONDATE=03.01.2020&action=compare>
- 6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063?ONDATE=21.04.2022&action=compare>



Ma'naviy-axloqiy tarbiya va pedagogik jarayonning integrativ jihatlarini M. H. Usmonboyeva, D. M. Sayfurov va A. B. To'rayevlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ular ta'lim jarayonida ma'naviy tarbiya uzluksiz va tizimli bo'lishi lozimligini, innovatsion metodlar esa tarbiyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishini asoslab beradilar. Tadqiqotchilar fikricha, an'anaviy tarbiya qadriyatlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgandagina talabalarda ma'naviy yetuklik, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi barqaror shakllanadi. Ushbu ilmiy qarashlar innovatsiya va an'analar integratsiyasining amaliy-pedagogik ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda innovatsiyalar va an'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalash jarayonini o'rganish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va suhbat usullari orqali oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar hamda pedagoglar ishtirokida yig'ildi. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va pedagogik tajribalar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy va tahliliy usullar yordamida umumlashtirildi, sifat jihatidan tahlil qilinib, innovatsion metodlar bilan an'anaviy tarbiya vositalarining o'zaro uyg'unligi baholandi. Tadqiqot natijalari asosida xulosalar chiqarilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Ma'naviyat" arabcha "ma'nolar majmui" bo'lib, kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy va diniy tasavvurlari hamda tushunchalari majmuini anglatadi. Yetuklik – bu shaxs rivojlanishining shunday darajasiki, unda shaxs o'zining fuqarolik, oilaviy, kasbiy va boshqa majburiyatlarini to'liq bajarishga qodir bo'ladi, qolaversa, jamiyatning muayyan sohalarida hamda mehnat faoliyatida samarali ishtirok etadi. "...taraqqiyotni tahlil qilish bu jarayonning o'ta murakkab va ziddiyatli ekanini ko'rsatmoqda: inson organizmining turli tizimlaridagi taraqqiyotning yuqori darajaga erishishi uchun turlicha vaqt sarflanganligi sababli uning psixikasi o'ta sodda va juda murakkabdir hamda uning evolyutsiyasi boshlanishidagi geteroxronlik va kechishidagi tezlikning noadekvatligi kuzatiladi". Muayyan bir shaxsning yetuklik darajasi uning individual xususiyatlari hamda ularning ijtimoiy muhit talablari va taraqqiyot sharoitlari bilan muvofiqlik darajasiga bog'liqdir. Ushbu ta'riflarni umumlashtirib quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'naviy yetuklik – bu shaxsning har tomonlama kamolotga erishganligi, insonlarning o'z qarorlarini mustaqil qabul qilishi va javobgarlikni o'z zimmlariga olishi bilan tavsiflanadi.

Internet madaniyatini, avvalo, kattalar, ota-onalar, eng avvalo pedagoglar o'zlaridan boshlasalar, kutilayotgan natijalarga erishish mumkin. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratish va ularning ma'naviy olami daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Yangi islohotlar amalga oshirilayotgan va jadal rivojlanayotgan bir davrda mamlakatimiz miqyosida ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tiborni alohida ta'kidlash lozim. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un va uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlar ega, yuksak ma'naviyatli, bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazish mumkin. Bizning ertangi kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarga bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda nazariy va amaliy ko'maklashish kelgusida yanada farovon hayot kechirishimiz uchun mustahkam zamin yaratadi. O'zbekistonning taraqqiyot dasturi uzoq va davomli maqsadlarni belgilashda xalqning moddiy va ma'naviy olamini yuksaltirish, yosh avlodni ajdodlar qoldirgan o'lmas merosni chuqur o'rganish, anglash va qadrlash bilan birga, umumbashariy qadriyatlar hamda zamonaviy ilm-fan cho'qqilarini egallash ruhida tarbiyalash masalasini ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Biz yangi O'zbekistonda yangi g'oyalar va rejalar bilan hamohang qadam tashlamoqdamiz. Ushbu ildam qadamlarimiz yaqin kelajakda o'zining istiqbolli natijalarini namoyon etadi.

Talabalarda ma'naviy yetuklikni shakllantirish avvalo bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Unga ko'ra, yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali bajarish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash, ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida uzluksizlik va uzviylik tamoyillariga tayangan holda onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash, homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari hamda mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kabi bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilangan. Konsepsiyada qayd etilishicha, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini bolalikdan boshlab shakllantirish lozim. Yuksak darajadagi ma'naviyatga ega inson fidoyilik, jasorat, mardlik, o'z xalqini sevis, Vatanni qadrlash, ajdodlardan faxrlanish kabi olijanob fazilatlarini bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, avvalo, uning ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi va pokligi bilan belgilanadi.



V. Slastenin fikriga ko'ra, innovatsion yondashuv pedagogik innovatsiyalarni muayyan sohada ijobiy o'zgarishlar va sifat jihatidan yuqori natijalarga erishish maqsadida qo'llashni, pedagogik yangiliklarni qabul qilishni, novatorlik darajasini, kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligini, ijodkorlik va ijodiy faollikni, faoliyatga yangilik kiritishga texnologik va metodologik jihatdan tayyorgarlikni, yangicha fikrlash hamda yuksak muomala madaniyatini ifodalaydi.

Axborot muhiti sharoitida talabalarda ma'naviy yetuklikni shakllantirish o'ziga xos murakkabliklarni o'z ichiga oladi. Bunda, avvalo, talabalar ong-u tafakkuridagi ma'naviy bo'shliqni umummadaniy kompetensiyalar orqali to'ldirish zarur. Talabalar tafakkurida shakllantirilgan kompetensiyalar ularning axborot muhitida ma'naviy yetukligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida o'sib kelayotgan avlodni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish asosiy maqsad qilib belgilangan. Ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar farzandlarimizning ma'naviy yetuk qiyofasini kamol toptirishga xizmat qiladi. Yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarning hayotga tatbiq etilishini alohida e'tirof etish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

- mediamakonda axborot xurujlaridan himoyalash usullarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish;
- pedagogik-psixologik fanlar mazmunini ma'naviy-axloqiy tavsifdagi o'quv materiallari bilan boyitishning aksiologik imkoniyatlarini ko'rsatib berish;
- real hayotdan misollar asosida muayyan keysli vaziyatlarni yaratish va ular orqali axborotlar bilan ishlash hamda ularni qo'llash kompetensiyalarini shakllantirish;
- zamonaviy axborot muhitida talabalarni axborot manbalaridan foydalanish malakasi va madaniyatini oshirish.

An'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalashdan asosiy maqsad o'qituvchi va o'quvchi mushtarakligiga erishish, talaba-yoshlarni fanga qiziqitirish, ta'limga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, o'rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda didaktik materiallarni mavzu bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir. An'analar integratsiyasi asosida talabalarni ma'naviy ruhda tarbiyalash ilmiy izlanishlar olib borish, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish orqali talabalarga yangi bilim berishni nazarda tutadi.

Darhaqiqat, xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, farovon kelajak poydevori hozirda unib-o'sib kelayotgan yoshlar hisoblanadi. Shu sababli ularning yuqori bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib voyaga yetishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda talaba-yoshlarni innovatsion an'analar integratsiyasi asosida tarbiyalash, yangi avlod ushbu tajribalardan saboq olib ulg'aysa, davlatimizning ertangi istiqboli yorqin bo'lishiga shubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4320700>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori: <https://lex.uz/docs/-5344692>
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. Safo Ochil. Mustaqillik va tarbiya masalalari. – T.: "O'zbekiston", 1995. – 480 b.
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N. A.
6. Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To'rayev A. B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.